

Bozor maydonidan yangi shinel kiygan, tuguncha ko'targan politsiya nazoratchisi Ochumelov o'tib borardi. Uning orqasidan musodara kilingan krijovnik to'la g'alvirni ko'targancha malla gorodovoy kelmoqda. Tevarak-atrof jimjit... Maydonda jon asari ko'rinmaydi... Do'konlar va qovoqxonalarning huvillagan eshiklari yorug' dunyoga ochiqqandek og'iz ochib turibdi; ularning yaqinida hatto gadoylar ham yo'q.

- Senmi hali qopadigan la'nati?- degan ovozni eshitadi daf'atan Ochumelov.- Yigitlar, uni ko'yib yuboringlar! Hozirgi kunda qopitish taqiqlangan! Ushla! A... a!

Itning vangillagani eshitaladi. Ochumelov o'girilib qarasa: savdogar Pichugining o'tin omboridan uch oyoqlab likonglab chopgancha alanglay-alanglay bir it qochib chiqayotibdi. Uni oharlangan chit ko'ylakli, nimchasining tugmalari solinmagan bir kishi quvlab kelmoqda. Gavdasi bilan oldinga intilgan ko'yi chopib kelayotib yerga yiqiladi-da, itning orqa oyog'ini tutib oladi. Yana itning vangillagani va: "Qo'yyb yuborma!" - degan qichqiriq eshitaladi.

Do'konlardan uyquli basharalar mo'ralaydi, tez orada o'tin ombori oldida bamisoli yerdan bodrab chiqqandek haloyiq to'planib qoladi.

«Б»Tartibsizlik yuz berganga o'xshaydi, janoblari!..- deydi gorodovoy.

Ochumelov chapga burilib, to'planganlar tomon qarab yuradi. Xuddi ombor darvozasi oldida u haligi nimchasining tugmalari solinmagan odamning o'ng qo'lini yuqori ko'targancha qonagan barmog'ini xaloyiqqa ko'rsatayotganini ko'radi. Mastroq basharasi: "Sening vajingdan shilib olmasammi, kazzob!" deb turgandek, barmog'ining o'zi ham g'alabasidan bashorat qilayotgandek.

Ochumelov bu odamning zargar Xryukin ekanligini bildi. To'planganlarning o'rtasida a'zoyi badani dir-dir titragan ko'yi mashmashaning sababchisi kiftida sarg'ish qashqasi bor, tumshug'i cho'zinchoq oppoq tozi kuchuk oldingi oyoqlari tarvaqaylagancha cho'nqayib o'tirardi. Yoshlangan ko'zlarida hasrat va dahshat aks etardi.

- Bu yerda nima sababdan to'planib turibsizlar? - deb so'raydi Ochumelov, xaloyiq orasiga yorib kirarkan.- Bu yerda nima qilib turibsizlar! Sen nega barmog'ingni ko'rsatasan?.. Baqirgan kim?

- O'zim ketayotgan edim, hech kimga tegmay, janoblari!..- deya gap boshlaydi Xryukin, mushtumiga yo'tala-yo'tala. - Mitriy Mitrichga o'tik vajidan uchrashgani... Daf'atan mana bu ablah buhudadan-behudaga barmog'imga yopishsa bo'ladimi... Siz meni kechirasiz-u, men bir zahmatkash odam bo'lsam... Ishim juda serdiqqat. Menga tovon to'lashsin, nega desangiz - men, ehtimolki, bu barmog'imni bir haftagacha qimirlatolmasman... Bu narsa qonunda ham yo'q, janoblari, maxluqdan jabr ko'rish degan gap... Mabodo ko'ringanni qopaveradigan bo'lsa, dunyoda yashamay qo'yaqolgan ham ma'qul...

Hm!.. Durust...- deydi Ochumelov jiddiy, yo'talib va qoshlarini uchirib.- Durust... Kimning iti? Men buni shundayligicha qoldirmayman. Men sizlarga itlarni tal-taytirib yuborish qanaqaligini ko'rsatib qo'yaman! Qarorlarga bo'ysunishni istamaydigan buningdek janoblarga diqqatni qaratishga allaqachon fursat yetgan! Yaramasni shartta shtrafqa tortishsa, itu balo-battar daydi hayvonlar nimaligini bilib oladi! Men uning onasini ko'rsatib qo'yaman!.. Yeldirin,- deya gorodovoyga murojaat qiladi nazoratchi,- bu kimning iti ekanligini bil-da, protokol tuz! Itni esa yo'qotish kerak. Darhol! Qutirgan bo'lsa ham ajab emas... Bu kimning iti, deyman?

- Bu general Jigalovning iti shekilli!- deydi xaloyiq orasidan kimdir.

- General Jigalovning itimi? Hm!.. Paltomni yechib ol-chi, Yeldirin... Yomon isib ketdi-ya! Yomg'ir yog'adiganga o'xshaydi-da... Men faqat bir narsaga tushunolmay turibman: u seni qanday qilib qopgan bo'lishi mumkin?- deb Xryukinga murojaat qildi

Ochumelov.- Nahotki barmog'ingga bo'yi yetsa? U kichkinagina bo'lsa, davangiligingni qara! - Barmog'ingni mix bilan cho'qilab kavlagansan-da, keyin kallangga, bir nima shilsam, degan fikr kelgan. Axir sen... ma'lumsanlar-ku! Men sen iblislarni bilaman!

- U ermak uchun itning tumshug'iga chekib turgan tamakisini bosdi, janoblari, u ham ziyrak hayvon, g'archcha tishladi... Bu, bema'ni odam, janoblari!

- Bekor aytibsan, so'qir! Ko'rmaningdan keyin yolg'on gapirib nima qilasan? Janoblari aqlli zotlardai, kim yolg'on gapirayotibdiyu kim sidqidildan xudoligini aytayotibdi - biladilar... Bordi-yu, men yolg'on gapirayotgan bo'lsam mirovoy ajrim qila qolsin... Uning qo'lidagi qonunda aytilgan... Hozirgi kunda hamma teppa-teng... Mening akam ham jandarmda xizmat qiladi... agar bilmochi bo'lsalaringiz...

- Gap sotilmasin!

- Yo'q, bu generalning iti emas,- deb o'ychanlik bilan qayd etadi gorodovoy.- Generalnikida bunaqasidan yo'q. Undagilar ko'proq iskovich itlar...

- Sen buni aniq bilasanmi?

- Aniq bilaman, janoblari...

- Men o'zim ham bilaman. Generalning itlari qimmatbaho, zotdor, bu nima o'zi - jin urgan. Na juni boru na vajohati...

qabohatning o'zi xalos! Shunday itni boqib yuradimi-ya?! Aql-hushlaring bormi o'zi? Mana shunday it Peterburgdami yoki Moskvada duch kelib qolsa, bilasizlarmi, nima qilishardi? U yerda qonun degan narsangga qarab o'tirmay, o'sha zahotiyog - til torttirishmasdi! Sen, Xryukin, jabr ko'ribsan, bu ishin oqibatsiz tashlab qo'yma... Ta'zirini berib qo'yish kerak! Fursat yetgan...

- Generalning iti bo'lsa ham ajab emas...- deydi baralla gorodovoy o'y surib. - Basharasiga yozib qo'yilmagan bo'lsa... Kuni kecha uning qo'rasida shunaqasini ko'rgan edim.

- Generalniki ekanligi aniq!- degan ovoz eshitaladi xaloyiq orasidan.

- Hm!.. Paltomni kiydirib qo'y-chi, birodar Yeldirin... Shamol turib qoldi... Etim ivishyapti... Uni generalga olib borib topshirasan, u yerda so'raysan. Meni topib jo'natdi, deysan... Tayinlab ayt, ko'chaga chiqazishmasin. Bu qimmatbaho it bo'lsa kerak, bordi-yu, har bir to'ng'iz tumshug'iga tamakisini ishqalayversa nobud bo'ladi-ketadi. It - nozik bir maxluq. Sen, galvars, qo'lingni pastga tushir. Bema'ni barmog'ingni pesh qilaverishingning hojati yo'k. Ayb o'zingda!..

- Generalning oshpazi kelyapti, o'shandan so'rab qo'ya qolamiz... Hoy, Proxor! Bu yoqqa kel-chi, azizim! Mana bu itni ko'r... Sizlarnikimi?

- Topgan gapingni qara-ya! Bunaqasi bizda sira ham bo'lgan emas!

- Buni surishtirib o'tirishning ham hojati yo'q,- deydi Ochumelov.- Bu daydi it! Gapni cho'zib o'tirishning keragi yo'q... Daydi it, dedimmi, daydi it. Yo'qotish kerak, vassalom.

- Bu bizning itimiz emas,- deb so'zida davom etadi Proxor.- Bu generalning kuni kecha kelgan akasining iti. Bizning xo'jayinning tozilarga hushi yo'q. Akalari ishqiboz...

- Iya, u kishining akalari kelganmilar? Vladimir Ivanovich-a?- deb so'raydi Ochumelov, iyib ketganidan aftiga tabassum yoyiladi.-

This is not registered version of TotalDocConverter  
Yo'lov, buni qaranglar-a! Men bo'lsam bexabar ekanman! Mehmon bo'lib keldilarmi?

- Mehmon bo'lib...

- Yo tavba, buni qaranglar-a! Ukalarini sog'inganlar-da... Men bo'lsam bexabar ekanman! O'sha kishining itlari degin? Juda xursandman... Buni olib ket... Binoyidekkina kuchuk ekan... Ziyakkina ekan... mana buning barmog'ini uzib ol! Ha-ha-ha... Ha, nega titraysan? Rrr... Rr... Achchig'lanyapti haromi... kuchukvachcha-ey.

Proxor itni chaqirib, uni ergashtirgancha o'tin omboridan yiroqlashadi... Xaloyiq Xryukindan xoxolab kuldi.

- Shoshmaytur hali senga ko'rsatib qo'yaman!- deb unga po'pisa qiladi Ochumelov va shineliga o'ranganicha bozor maydoni bo'ylab yo'lida davom etadi.

1884